



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
ARZON KREDITLAR VA IQTISODIY O'SISH: MARKAZIY BANK SIYOSATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich	



ARZON KREDITLAR VA IQTISODIY O'SISH: MARKAZIY BANK SIYOSATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI



Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
ziyodullayevdilshod65@gmail.com

Ilmiy rahbar
Sharapova Mashhura Azadovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
SharapovaMash@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy bankning yumshoq pul-kredit siyosati real sektor investitsion faolligi va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — arzon kreditlarning YAIM o'sishidagi rolini baholash va transmissiya mexanizmidagi tizimli to'siqlarni aniqlashdan iborat. Maqolada past foizli kreditlashning iqtisodiy o'sishga ta'siri bilan birga, inflatsion bosim hamda bank tizimi barqarorligiga xatarlari ham o'rganilgan. Ekspansionar siyosat fonida iqtisodiy o'sish va narxlar barqarorligi o'rtasidagi optimal muvozanatni topish masalalariga urg'u berilgan. Yakunda foiz siyosati samaradorligini oshirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, yumshoq pul-kredit siyosati, foiz stavkalar, real sektor, investitsion faollik, inflatsion xatarlar, makroiqtisodiy barqarorlik, transmissiya mexanizm, arzon kreditlash, ekspansionar siyosat.

Abstract

This article analyzes the impact of the Central Bank's expansionary monetary policy on real sector investment activity and macroeconomic stability. The study aims to assess the role of low-cost credit resources in GDP growth and identify systemic bottlenecks within the transmission mechanism. Alongside the positive effects of low-interest lending on economic growth, the paper examines the associated risks of inflationary pressures and threats to banking system stability. Particular emphasis is placed on finding an optimal balance between economic growth and price stability under expansionary policy. Concluding recommendations focus on enhancing the effectiveness of interest rate policy and boosting the country's investment attractiveness.

Keywords: Central Bank, soft monetary policy, interest rates, real sector, investment activity, inflationary risks, macroeconomic stability, transmission mechanism, affordable lending, expansionary policy.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние мягкой денежно-кредитной политики Центрального банка на инвестиционную активность реального сектора и макроэкономическую стабильность. Цель исследования — оценить роль доступных кредитных ресурсов в росте ВВП и выявить системные барьеры в трансмиссионном механизме. Наряду с положительным влиянием политики низких процентных ставок на экономический рост рассматриваются риски усиления инфляционного давления и угрозы финансовой стабильности банковской системы. Особое внимание уделено поиску оптимального баланса между экономическим ростом и ценовой стабильностью в условиях экспансионистской политики. В заключении разработаны практические рекомендации, направленные на повышение эффективности процентной политики и укрепление инвестиционной привлекательности страны.




Ключевые слова: Центральный банк, мягкая денежно-кредитная политика, процентные ставки, реальный сектор, инвестиционная активность, инфляционные риски, макроэкономическая стабильность, трансмиссионный механизм, дешевое кредитование, экспансионистская политика.

KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish makroiqtisodiy siyosatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar jarayonida real sektor korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsion faollikni oshirishda Markaziy bank tomonidan yuritilayotgan pul-kredit siyosati, xususan, foiz stavkalarini optimallashtirish masalasi strategik ahamiyatga ega.

Biroq, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar sharoitida ushbu jarayon bir qator ziddiyatlarga ega. Bir tomondan, iqtisodiyotni texnologik va innovatsion rivojlanish modeliga o'tkazish uchun arzon va uzoq muddatli moliyaviy resurslar zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, pul massasining nazoratsiz o'sishi inflatsion kutilmalarni kuchaytirib yuborishi mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bir qancha qonunlar, qarorlar va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bir qancha iqtisodiy masalalar aytib o'tilgan: "Joriy iqtisodiy islohotlar dasturida iqtisodiy o'sish sur'atini 6,6 foizga yetkazish va inflatsiyani 6,5 foizgacha jilovlash kabi qat'iy maqsadlar qo'yilgan. Ushbu ko'rsatkichlarga erishishda Markaziy bankning transmissiya mexanizmi orqali iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kredit resurslarining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, investitsiya hajmini 50,4 milliard dollarga yetkazish va kapital bozori kapitallashuvini 100 milliard dollardan oshirish rejalari tadbirkorlik subyektlari uchun arzon va uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini shakllantirish zaruriyatini yanada dolzarblashtiradi.¹ (1-rasm)



1-rasm. Markaziy bankning yumshoq pul-kredit siyosati va arzon kreditlarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Markaziy bankning "yumshoq" pul-kredit siyosati faqatgina foiz stavkalarini mexanik pasaytirish emas, balki iqtisodiyotda ishonch va shaffoflikni shakllantirish jarayonidir. Xalqaro tajribada, xususan, Alan S. Blinder (NBER, 13932) tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, Markaziy bankning kommunikatsiya strategiyasi bozor ishtirokchilari kutilmalarini boshqarish orqali uzoq muddatli foiz stavkalarini pasaytirishda asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi.² O'zbekiston iqtisodiyotini texnologik o'sish modeliga o'tkazish doirasida belgilangan 6,6 foizlik YaIM o'sishi va 50,4 milliard AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-22-son

² Central Bank Communication and Monetary Policy: A Survey of Theory and Evidence Alan S. Blinder, Michael Ehrmann, Marcel Fratzscher, Jakob De Haan, and David-Jan Jansen NBER Working Paper No. 13932 April 2008 JEL No. E52, E58



jalb etish rejasi bank tizimi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bunda nafaqat kreditlarni "arzonlashtirish", balki transmissiya mexanizmidagi to'siqlarni bartaraf etish orqali moliyaviy resurslarning real sektorga to'g'ridan to'g'ri oqib kirishini ta'minlash zarur. Shuningdek, kapital bozori hajmini 100 milliard dollarga yetkazish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar bank kreditlariga bo'lgan yuqori bosimni pasaytirish va tadbirkorlar uchun muqobil moliyalashtirish manbalarini yaratish imkonini beradi. Biroq, yumshoq pul-kredit siyosatining faollashishi inflatsiya darajasini 6–6,5 foiz oralig'ida saqlash va budget taqchilligini 3 foizdan oshirmaslik kabi makroiqtisodiy cheklovlar bilan to'qnash keladi. Shu sababli, mazkur maqolada iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan narxlar barqarorligini saqlash o'rtasidagi optimal muvozanatni topish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Markaziy bank operatsiyalari samaradorligini oshirish va ichki moliyaviy bozor konyunkturasini yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqola sifat jihatiga asoslangan metodologiyani qo'llaydi va jahon va milliy iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda ilmiy adabiyotlarning ikkilamchi ma'lumotlari tahliliga tayangan. Pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'siri va foiz stavkalarini tartibga solish mexanizmlari uzoq yillardan buyon iqtisodchi olimlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu sohadagi eng nufuzli manbalardan biri bo'lgan Keith Bain va Peter Howellsning «Monetary Economics» darsligida ta'kidlanishicha, Markaziy bankning asosiy vazifasi nafaqat pul massasini nazorat qilish, balki moliya bozorida foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsatish orqali umumiy talabni boshqarishdir. Mualliflar pul-kredit siyosatining «uzatish mexanizmi» (transmission mechanism) orqali real sektorga ta'sirini tahlil qilib, foiz stavkalarining pasayishi investitsiya xarajatlarini arzonlashtirishi va bu orqali YaIM o'sishini rag'batlantirishini ilmiy asoslab berishgan.³ Bundan tashqari, Markaziy bank siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan iqtisodiy subyektlarning ushbu siyosatni qanchalik tushunishiga bog'liq. M. Berardi va J. Duffy o'zlarining tadqiqotlarida shaffoflik omiliga yangicha yondashib, uni "adaptiv o'rganish" (adaptive learning) jarayoni bilan bog'lashadi. Ularning fikricha, Markaziy bankning shaffof siyosati xususiy sektorga inflatsiya va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha to'g'ri iqtisodiy modellarni shakllantirishga imkon beradi.⁴ Aksincha, axborotning yetarli emasligi (notransparentlik) agentlarning noto'g'ri kutilmalar shakllantirishiga va natijada iqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Bu esa bizning tadqiqotimizda tahlil qilinayotgan 2026-yilgi strategik maqsadlarga — investitsiyalar hajmini 50,4 milliard dollarga yetkazish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda Markaziy bankning nafaqat instrumentlari, balki uning shaffoflik darajasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va uning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rni mahalliy olimlar T.I. Boboqulov, U.A. Abdullayev va J.Ya. Isakovlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Mualliflar o'zlarining "Monetar siyosat" darsligida ta'kidlaganidek, pul-kredit siyosatining taktik va strategik maqsadlariga erishish bevosita monetar indikatorlarni (pul massasi, valyuta kursi, foiz stavkalari) to'g'ri baholashga bog'liq.

Ushbu tadqiqotda keltirilgan metodologiyaga ko'ra, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pullar taklifini tartibga solish nafaqat inflyatsiyani jilovlash, balki bank tizimi barqarorligini ta'minlash orqali real sektorga yo'naltirilgan kreditlar oqimini rag'batlantirishi lozim. Bu esa bizning tadqiqotimizda ilgari surilayotgan investitsiya ehtiyojini qondirishda ichki monetar resurslardan samarali foydalanish zaruriyatini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.⁵

Xususan, mahalliy olimlarning monetar instrumentlar samaradorligi borasidagi xulosalari xalqaro miqyosdagi Bain va Howells hamda Berardi va Duffy nazariyalari bilan hamohang bo'lib, milliy iqtisodiyotda transmissiya mexanizmining "foiz kanali" va "shaffoflik" tamoyillarini yanada kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Markaziy bankning yumshoq pul-kredit siyosati va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida kompleks tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni faqatgina nazariy qarashlar bilan cheklanib qolmasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlariga tayanadi. Metodologiyaning asosini pul-kredit signallarining tijorat banklari orqali tadbirkorlarga yetib borish mexanizmini o'rganish tashkil etadi. Ushbu jarayonni aniqroq yoritish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida hisoblangan maxsus jadvallar va tendensiyalarni ko'rsatuvchi grafiklardan foydalanildi. Shuningdek, arzon kredit resurslarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini oshirishdagi o'rni formulalar yordamida tahlil qilinib, pul massasining ko'payishi bilan inflatsiya xatarlari o'rtasidagi muvozanat nuqtasi ko'rsatib o'tildi.

3 Keith Bain and Peter Howells. *Monetary Economics: Policy and its Theoretical Basis*. – New York: Palgrave Macmillan, 2003. – P. 162

4 Berardi, M., & Duffy, J. (2007). The value of central bank transparency when agents are learning. *Journal of Banking & Finance*, 31(9), 2800-2818.

5 Boboqulov T.I., Abdullayev U.A., Isakov J.Ya. *Monetar siyosat: Darslik*. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 232 b.



Tadqiqotning amaliy qismida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan iqtisodiy marralar va mavjud bozor holati o‘zaro qiyoslandi. Bunda Markaziy bank siyosatining ochiqligi va tadbirkorlarning ushbu siyosatga bo‘lgan ishonchi asosiy sifat ko‘rsatkichi sifatida inobatga olindi. Yakuniy bosqichda barcha hisob-kitoblar va qiyosiy tahlillar umumlashtirilib, mamlakatimiz investitsion muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy bankning foiz stavkalarini pasaytirish siyosati iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda «ikki tig‘li shamshir» vazifasini o‘taydi. Bir tomondan, kreditlarning arzonlashishi real sektor korxonalari uchun yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi. Natijada, investitsiyalar kirib kela boshlaydi, iqtisodiy faollik oshadi va iqtisodiyot o‘sadi. Biroq, ikkinchi tomondan, pul massasining nazoratsiz ko‘payishi iste‘mol bozorida narxlar barqarorligiga bosim o‘tkazadi. Natijada, inflatsiya ko‘rsatkichi yuqoriga qarab o‘sadi. Bunda ikki holat yuzaga keladi:

Kreditlar foizining pasayishi bilan inflatsiya o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik (foiz pasayadi, inflatsiya oshadi).

Iqtisodiy o‘shish va faollik bilan inflatsiya o‘rtasidagi to‘g‘ri bog‘liqlik (faollik oshadi, inflatsiya oshadi)

Eng asosiy muammo shunda, va buni yechimini topishda, ochiq iqtisodiyot sharoitida pul-kredit siyosatining samaradorligini o‘rganishda R. Mundell va M. Fleming tomonidan asoslangan ‘Monetar trilemma’ (yoki ‘Imkonsiz trinity’, yoki Mundel-Fleming modeli) konsepsiyasi fundamental ahamiyatga ega. Ushbu nazariya Markaziy Bankning foiz stavkalari orqali mustaqil siyosat yuritishi, valyuta kursining barqarorligi va kapitalning erkin harakati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib beradi. Quyidagi 2-rasmda Mundell-Fleming modeli aks etgan (2-rasm).⁶

Mundell-Fleming modeli




2-rasm. Mundell-Fleming modeli.

i: Foiz stavkasi, Y: Milliy daromad, IS: Tovar va xizmatlar bozorining muvozanati, IS': Bozor muvozanatining rag‘batlantiruvchi byudjet-soliq siyosatidan keyingi holati, LM: Pul bozori muvozanati, LM': Pul bozori muvozanatining monetar siyosatdan keyingi holati, E0: iqtisodiyotning dastlabki muvozanat nuqtasi, E*: ideal muvozanat nuqtasi, Y0: dastlabki YaIM, Y*: targetli YaIM, i^*/i_0 : muvozanatli foiz stavkasi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tahlilimiz davomida Markaziy bankning yumshoq pul-kredit siyosati faqat ichki omillar bilan emas, balki xalqaro iqtisodiyotdagi «Monetar trilemma» (Impossible Trinity) qonuniyati bilan ham jiddiy to‘qnash kelishi aniqlandi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyoti bir vaqtning o‘zida uchta maqsadga — mustaqil pul-kredit siyosati, valyuta kursining qat’iy barqarorligi va kapitalning erkin harakatiga — to‘liq erisha olmaydi (3-rasm).

6 The Mundell-Fleming Economic Model: A Crucial Model for Understanding International Economics. – 50Minutes, 2015. – 55 p.


3-rasm. Monetar trilemma.⁷

O'zbekiston sharoitida, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilanganidek, investitsiya hajmini 50,4 milliard dollarga yetkazish (kapital erkin harakati) va inflatsiyani 6,5 foizgacha jilovlash (mustaqil monetar siyosat) ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu esa trilemma qonuniyatiga ko'ra, valyuta kursining ma'lum ma'noda moslashuvchan (suzuvchi) bo'lishini taqozo etadi.

Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari tadbirkorlari bilan o'tkazilgan muloqotlar shuni ko'rsatdiki, ular uchun nafaqat kreditning foiz stavkasi, balki ushbu trilemmaning natijasi bo'lgan valyuta kursi prognozi ham investitsion qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadbirkorlar «arzon kredit» va «kurs barqarorligi» o'rtasidagi bog'liqlikni sezmoqdalar: agar foiz stavkalari keskin tushirilsa (monetar yumshatish), bu milliy valyuta kursiga bosim o'tkazishi va natijada import qilinadigan texnologiyalar narxini oshirib yuborishi mumkin.

Shu sababli, Markaziy bankning mukammal yechimi — foiz stavkalarini pasaytirishda trilemma muvozanatini saqlash, ya'ni arzon kreditlar massasini shunchaki iste'molga emas, balki valyuta tushumini ta'minlovchi eksportbop real sektor loyihalariga yo'naltirishdan iborat. Bu yondashuv ham iqtisodiy o'sishni (6,6%), ham narxlar barqarorligini ta'minlashning yagona ilmiy asoslangan yo'lidir.

Bundan tashqari, ekonometrik modelashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanish bosqichida Monetar Transmissiya Mexanizmi (MTM) o'ziga xos transformatsion xususiyatlarga ega. An'anaviy monetar qarashlarda foiz stavkasi kanali asosiy drayver sifatida ko'rilsa-da, bizning tahlillarimiz «Kutilmalar kanali» (Expectations Channel) va «Ishonch bonusu» (Credibility Bonus) ustuvorligini ko'rsatdi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligi va ularning kelajakdagi inflyatsion kutilmalari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti o'rganilganda, Markaziy bankning institutsional ishonchlilik darajasi (Credibility Index) hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlandi.⁸ Monetar transmissiya mexanizmidagi «foiz kanali» bozor ishtirokchilarining kelajakka bo'lgan ishonchi past bo'lgan sharoitda «muzlash» holatiga tushadi. Aksincha, regulyatorning shaffof kommunikatsiyasi va prognozlari aniqligi oshishi transmissiya zanjiridagi risk-premiumlarni qisqartirib, investitsion muhitni foizlarni pasaytirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inflatsion xatarlarsiz sog'lomlashtiradi.⁹ Quyidagi rasm MTMning iqtisodiy o'sishga ta'sirini yoritadi (4-rasm).



4-rasm. MTM va YaIM o'rtasidagi bog'liqlik

⁷ <https://cbu.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.

⁸ Mishkin, F. S. (2018). The Economics of Money, Banking and Financial Markets (12th ed.). Pearson.

⁹ Walsh, C. E. (2017). Monetary Theory and Policy (4th ed.). MIT Press.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy bankning "yumshoq" pul-kredit siyosati faqatgina pul massasini ko'paytirish emas, balki "ishonch kanali" orqali investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishi lozim. O'zbekiston sharoitida foiz stavkalarining pasayishi real sektorga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- Eksport yo'nalishidagi loyihalarni ustuvor moliyalashtirish: Arzon kreditlar shunchaki iste'molni rag'batlantirmasdan, valyuta tushumini ta'minlovchi ishlab chiqarishga yo'naltirilsa, bu "Monetar trilemma"dagi milliy valyuta qadrsizlanishi xavfini minimallashtiradi.
- Transmissiya mexanizmini raqamlashtirish: Markaziy bank signallarining tijorat banklari orqali tadbirkorlarga yetib borishidagi "byurokratik filtr"larni kamaytirish foiz kanali samaradorligini 20–25% ga oshirishi mumkin.
- Kutilmalarni boshqarish: Markaziy bankning shaffoflik darajasi oshishi (Credibility Index) bozor ishtirokchilarida "ertangi kunga ishonch"ni shakllantiradi, bu esa foizlar yuqori bo'lgan taqdirda ham uzoq muddatli investitsiya kiritish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Markaziy bankning yumshoq pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda «ikki tig'li shamshir» vazifasini o'taydi. Bir tomondan, foiz stavkalarining pasayishi real sektor korxonalari uchun investitsion faollikni oshirib, YaIM o'sishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, pul massasining nazoratsiz ko'payishi inflatsion bosimni kuchaytiradi. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan 6,6 foizlik o'sish sur'atiga erishishda ushbu ikki omil o'rtasidagi optimal muvozanatni topish strategik ahamiyatga ega.

Mundell-Fleming modeli asosida o'tkazilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kapitalning erkin harakati sharoitida mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish valyuta kursining moslashuvchanligini taqozo etadi. Tadbirkorlar uchun nafaqat kreditning arzonligi, balki valyuta kursi prognozi ham investitsion qaror qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, reguliatorning siyosati shunchaki foizlarni mexanik pasaytirish bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy agentlarda barqaror kutilmalarni shakllantira olishi zarur. Eng muhimi, zamonaviy bank tizimi faqatgina resurslarni taqsimlovchi mexanizm emas, balki iqtisodiy barqarorlikning kafolati bo'lishi lozim. Arzon kredit siyosati aholi va tadbirkorlik subyektlarini bank tizimiga uzoq muddatli qaram qiluvchi yoki moliyaviy tobe etuvchi vositaga aylanmasligi shart. Aksincha, kredit resurslari iqtisodiy subyektlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga, ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va yangi qiymat yaratish salohiyatini oshirishga xizmat qilishi darkor. Kreditlash jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy mas'uliyat tamoyillarining ustuvorligi subyektlarning qarz yukini optimallashtirish va ularning iqtisodiy erkinligini himoya qilish imkonini beradi.

Yakuniy xulosa sifatida, mamlakatning xalqaro investitsion jozibadorligini oshirish va barqaror makroiqtisodiy muhitni yaratish uchun pul-kredit signallarining real sektorga yetib borishidagi tizimli to'siqlarni bartaraf etish hamda kapital bozorini rivojlantirish orqali bank tizimidagi bosimni kamaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-22-son.
2. Central Bank Communication and Monetary Policy: A Survey of Theory and Evidence. Alan S. Blinder, Michael Ehrmann, Marcel Fratzscher, Jakob De Haan and David-Jan Jansen. NBER Working Paper No. 13932. April 2008. JEL No. E52, E58.
3. Keith Bain and Peter Howells. Monetary Economics: Policy and its Theoretical Basis. – New York: Palgrave Macmillan, 2003. – P. 162.
4. Berardi, M., & Duffy, J. (2007). The Value of Central Bank Transparency When Agents Are Learning. Journal of Banking & Finance, 31(9), 2800–2818.
5. Boboqulov T.I., Abdullayev U.A., Isakov J.Ya. Monetar siyosat: Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 232 b.
6. The Mundell-Fleming Economic Model: A Crucial Model for Understanding International Economics. – 50Minutes, 2015. – 55 p.
<https://stat.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi.
<https://cbu.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
Mishkin, F. S. (2018). The Economics of Money, Banking and Financial Markets (12th ed.). Pearson.
Walsh, C. E. (2017). Monetary Theory and Policy (4th ed.). MIT Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>